

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
O'ZBEK YURIDIK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI

Abduvaliyeva Aziza

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyot ta'lifi fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Har bir xalqning terminlar tizimida shakl va mazmunning birligi hamda ularning mutanosibligi masalasi muhim o'rinn tutadi. Chunki mazmun – obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning ongda aks etishi bo'lsa, shakl (nom) esa shu tushunchaning tashqi belgisi, ramziy ko'rinishidir. Shu bois tushunchalarga nom berishda terminlar qanchalik to'g'ri tanlansa va tushuncha bilan termin o'rtasida uzviy aloqadorlik qanchalik kuchli bo'lsa, termin tushunchani shunchalik aniq ifodalaydi.*

Kalit so'zlar: terminologiya, shakl, mazmu, terminologik lug'atlar, yuridik terminlar, yuridik atamalar.

Аннотация: Важное место в системе терминов каждого народа занимает вопрос о единстве формы и содержания и их соразмерности. Потому что содержание – есть отражение в сознании вещей и явлений в объективном бытии, тогда как форма (название - это внешний признак, символическое проявление этого понятия). Поэтому чем правильнее выбираются термины при присвоении названий понятиям и тем сильнее неразрывная связь понятия с термином, тем точнее термин выражает понятие.

Ключевые слова: терминология, форма, содержание, терминологические словари, юридические термины, юридические термины.

Annotation: *in the system of terms of each people, an important place is occupied by the question of the unity of form and content and their proportionality. Because content is the reflection of things and phenomena in an objective being in the mind, while form (name) is the external sign, symbolic representation of that*

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

concept. Therefore, the more correctly terms are chosen when naming concepts, and the stronger the inextricable connection between the concept and the term, the more clearly the term expresses the concept.

Keywords: terminology, form, mazmu, terminological dictionaries, legal terms, legal terms.

KIRISH

O‘zbek terminologik lug‘atlari, ta’bir joiz bo‘lsa, fan sohalarining deyarli barchasini qamrab olgan deyish mumkin. Aniq fan sohalari kabi ijtimoiy-gumanitar fan sohalari doirasida qo‘llanuvchi terminlarning ma’no-mohiyatini ifodalashga yo‘naltirilgan lug‘atnavislik (terminografiya) ishlari respublika ilmiytadqiqot institutilari yetakchi olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari tomonidan tuzilgan. Terminologik lug‘atlarning aksariyati rus tilidan o‘zlashgan terminlarning o‘zbek tilida ifodalanish masalasiga bag‘ishlangan.

O‘zbekistonda ham yuridik terminlar bo‘yicha tadqiqotlarga o‘tgan asr boshlaridan kirishilgan. Xususan, ma’rifatparvar olim G‘ozzi Yunus 1926-yilda “Ruscha-o‘zbekcha qisqacha huquqiy va siyosiy lug‘at” ni tuzadi. U lug‘atda ruscha yuridik terminlarni turkiy so‘zlar asosida berishga harakat qiladi va buning uchun ko‘proq buyuk sarkarda Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitobiga asoslanadi, yuridik terminlarning aksariyatini shu kitobdan oladi. Olimning yana 1926-yilda esa “O‘zbekiston Ijtimoiy Sho‘ro Jumhuriyatining jazo tuzugi” nomli jinoyat kodeksi, “O‘zbekiston Ijtimoiy Sho‘ro Jumhuriyatining jazo-yo‘ruq tuzugi” nomli jinoyat-protsessual kodekslari nashr etiladi¹.

ASOSIY QISM

Huquqshunoslik doirasida ham lug‘atlar tuzish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilganini ta’kidlash lozim. Shu o‘rinda G‘.Ahmedov va H.Bektemirov tomonidan tuzilgan “Ruscha –o‘zbekcha yuridik atamalar lug‘ati”ning “Adolat” nashriyotida A.Saidov ma’sul muharrirligi ostida 2002-yili e’lon qilinganini e’tirof etish maqsadga molik. Binobarin, bu lug‘at tuzilishi va unda materiallarning berilishi jihatidan avvalgi lug‘atlardan farq qiladi. Lug‘atga qonunlar,

¹Кўчимов Ш. Юридик тил назарияси ва амалиёти. - Т., 2013. – 51 6.

www.tadqiqotlar.uz

8-to’plam 4-son iyun 2024

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

huquqshunoslik, xalqaro huquq sohasi, huquqqa oid darsliklar hamda ish yuritishda ishlataladigan terminlar kiritilgan.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishda ham iqtisodiy, ham huquqiy terminlar bir-biri bilan bog'lanib ketganligi bois iqtisod va huquqqa oid chegaradosh terminlar ham lug'atdan o'rinni olgan. Lug'atning afzalliklaridan biri – unda terminlarning kirill yozuvidan tashqari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ham berilishidir. Ushbu lug'atni yaratishda F.Bakirovning "Yuridik terminlar lug'ati" (Toshkent, 1959), "Yuridik atamalar va iboralar lug'ati" (Toshkent, 1993)dan foydalanilgan. Bu yo'nalishda so'nggi paytlarda e'lon qilingan ishlardan biri sifatida Z.Muqimov hamda O.Tursunovalar tomonidan tuzilgan va Samarqandda 2007-yilda chop etilgan "O'zbek davlatchiligidagi qo'llangan tarixiy-huquqiy atamalar"ni keltirish mumkin. Lug'at o'zbek davlatchiligi tarixining turli davrlarida, turli tillarda qo'llangan terminlar, ularning etimologiyasi (qaysi tilga xosligi), til va huquqqa oid ma'nolari izohlarini qamrab olgan.

O'zbekistonda birinchi bo'lib taniqli huquqshunos olim professor A.X.Saidov yuridik til, huquqshunos nutqi, qonun tili muammolarini maxsus o'rganishni boshlab berdi va yuridik oliy o'quv yurtlarida "Yuristning nutq madaniyati", "Yuridik terminologiya asoslari", "Qonun tili", "Qonunchilik texnikasi"ni fan sifatida o'qitilishini o'rtaga tashladi².

Professor K.Nazarov, D.Usmonov, Q.Tohirov tomonidan tayyorlangan "Yuristning nutq madaniyati" darsligi (2003- yil) sinov tariqasidagi birinchi darslik bo'lganligi uchun ba'zi aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan o'rinnar va kamchiliklardan xoli emas edi. Bu kitob yuzasidan ilmiy jamoatchilik fikrlari inobatga olingach, tajribalardan kelib chiqib, darslik Sobir Usmonov tomonidan qayta yozildi. Birinchi darslikdagi K.Nazarov tomonidan yozilgan "Kirish", "Fonetik me'yorlar" bo'limlari, Q.Tohirov tomonidan tayyorlangan "Ilovalar" yangi nashr etilayotgan "Yuristning nutq madaniyati" kitobiga kiritilmadi. D.Usmonov tomonidan yozilgan asosiy qism qayta ishlandi, to'ldirildi. Jumladan, "Kirish" qisqa va lo'nda

² Saidov A., Sarkisyan G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: Adolat, 1994, 8-bet

www.tadqiqotlar.uz

8-to'plam 4-son iyun 2024

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tarzda yozildi. “Yuridik til va uning o‘ziga xos xususiyatlari”, “Og‘zaki va yozma yuridik nutq”, “Yuridik terminlar tizimining o‘ziga xos xususiyatlari” masalalari alohida bob sifatida darslikka kiritildi. “Prokuroming ayblov nutqi”, “Advokatning himoya nutqi” bo‘limlari bilan boyitildi.

G.G‘ulomova o‘zbek tilidagi yuridik terminologiyani tadqiq qiliish jarayonida atamalarning turli muqobil ko‘rinishlarini tartibga keltirish masalasini ko‘taradi. Masalan, rus tilidagi контракт, договор, соглашение, сделка atamalarining o‘zbek tilida shartnoma, bitim, kelishuv, biylashuv tarzida aralash ishlatilishi, xususan:

договор – shartnoma, bitim;

контракт – bitim, shartnoma, kelishuv;

соглашение – bitim, shartnoma;

сделка – bitim, kelishuv, biylashuv ma’nolarida qo‘llanishini qayd etadi. Mazkur atamalar o‘rtasida jiddiy farq borligini ta’kidlab, ularni quyidagi tartibda ishlatishni taklif qiladi:

договор – ahdnoma;

контракт – shartnoma;

соглашение – kelishuv; сделка – bitim.

XULOSA

Mustaqil davlatchiligimiz yanada takomillasha borayotganligi tufayli inson huquqlari bilan bog‘liq xilma-xil qonunlaming qabul qilinishi, o‘z navbatida, huquqqa oid minglab yangi terminlaming yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lmoqda, chunki ijtimoiy hayotda har qanday tushuncha yoki hodisaning tug‘ilishi uning in’ikosi sifatida terminlaming boyishiga sabab bo‘ladi. Biroq yuzaga kelayotgan huquqqa oid tushunchalar, tilda so‘z yoki termin sifatida o‘z in’ikosini topar ekan, ular milliy tilning o‘z qonuniyatlari asosida ifodalanmog‘i va shakllanmog‘i shart. Aytaylik, tanlanayotgan va kundalik muloqotga kirib borayotgan yuridik terminlar voqeа-hodisa va belgi-tushunchaning aniq nomini ifodalayaptimi, boshqa tillardan o‘zlashayotgan terminlaming o‘zbek tilidagi muqobili adabiy til me’yorlariga muvofiq kelayaptimi yoki yo‘qmi? Bu masalalar yuristlar bilan filologlar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hamkorligida o‘zining aniq yechimini topsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bo‘lajak yuristlarimizning davlatchilik, qonunchilik hamda yurisprudensiya tarmoqlariga oid bilimlari davlat tili zaminida, shu tilning o‘ziga xos qonuniyatları, uslubiyati va terminologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganmoqlari hayot taqozosidir. Davlatimizda huquqiy islohotlar o‘tkazilayotgan hozirgi sharoitda qonunlar tili va uslubi, huquq terminologiyasi muammolari muhim ahamiyatga ega. Har qanday islohotlar qonunlarni o‘zgartirmasdan amalga oshirilmaydi, bu esa o‘z-o‘zidan, yangi-yangi til birliklari (so‘z va terminlarning) va shakllarining rivoj topishi uchun zamin hozirlaydi. Qonun tilida noto‘g‘ri qo‘llanilgan birgina tovush, qo‘sishimcha va so‘z, hatto, birgina tinish belgisi qo‘pol mazmuniy va uslubiy xatolarni, nuqsonlarni, g‘alizliklarni keltirib chiqaradi. Masalan,

Bu voqealarning barchasi menga yod.

Bu voqealarning barchasi menga yot.

Misolda keltirilgan yod va yot so‘zlari paronim, ya’ni talaffuzi va shakli bir-biriga yaqin so‘zlar bo‘lsa-da, ma’nolari har xildir. Ulaming o‘rnini almashtirib qa‘llash gapning mazmunini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Yoki quyidagi misolga e’tibor qarataylik:

1.O‘lim yo‘q, shafqat.

2.O‘lim, yo‘q shafqat.

Ko‘rinib turibdiki birgina vergulning o‘rini almashtirish nafaqat uslubiy xato hisoblanadi, balki jinoyatni yuridik baholashda ham kechirib bo‘lmaydigan xatolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yuristlarimiz tergov hujjatlarini yozishda, qonun loyihalarini tayyorlashda, sud hukmi matnlarini tuzishda o‘ta ziyrak va zukko, bilimdon va ehtiyyotkor bo‘lmoqlari lozim. Chunki tergov, sud jarayoni bilan bog‘liq hujjatlar yoxud qonunlar moddalarining har birida inson taqdiri yotadi. Shunday qilib, huquq va til bir jarayonning ikki tomoni bo‘lib, huquq mazmun bo‘lsa, til o‘sha mazmunning voqe bo‘lishidagi vositadir. Mazmun bilan shaklning uyg‘unlashuvi esa aql sohibining qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

1. Аҳмедов Ф., Бектемиров X. Русча-ўзбекча юридик атамалар луғати.- Ташкент: Адолат, 2002.
2. Бакиров Ф. Юридик терминлар луғати. -Ташкент, 1959.
3. Бакиров Ф. Юридик атамалар ва иборалар луғати. -Ташкент, 1993.
4. Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: Adolat, 1994, 8-bet
5. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. O‘zbekiston Faylasuflar Milliy Jamiyati Nashriyoti.Toshkent-2007.
6. Кўчимов Ш. Юридик тил назарияси ва амалиёти. - Т., 2013. – 51 б
7. Dadaboyev H. O‘zbek terminalogiyasi. Toshkent-2019.